

**TURLI PSIXOLOGIK MAKTABLAR NUQTAI NAZARIDA
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTELLEKT
SHAKLLANISHIGA OID ASOSIY YONDASHUVLAR**

Xonzafarov Og'abek Otabek o'g'li
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellekt shakllanishi bo'yicha psixologik maktablarning yondashuvlari, psixologik maktablar namoyondalarining ilmiy qarashlari keltirilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellekt shakllanish jarayoni va bu jarayonning psixologik asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Intellekt, kognitiv rivojlanish, xulq, psixoanaliz, bixeviorizm, gumanistik psixologiya, kognitiv psixologiya, eksternalizatsiya, internalizatsiya, motivatsiya, mantiqiy fikrlash, individual yondashuv, tasavvur, qobiliyat, xarakter.

Bolalarda intellektning shakllanishi azaldan dolzarb mavzu hisoblangan. Bu masalada turli olimlar va psixologik maktablar o'zlarining yondashuvlarini, nazariyalarini va fikrlarini bildirgan. Bunday maktablardan biri Zigmund Freyd, Alfreg Adler, Karl Yung nomlari bilan bog'liq bo'lgan psixoanalitik maktab hisoblanadi.

Zigmund Freyd psixikani uch asosiy tarkibiy qismga — id, ego va superego — ajratgan. Unga ko'ra, bolaning intellektual rivojlanishi aynan shu psixik strukturalar o'rtasidagi muvozanatga bog'liq. Id — bolaning tug'ma instinkt va hayvoniy ehtiyojlarini ifodalaydi, superego esa ijtimoiy qoidalar, ota-ona va jamiyat talablarining ichkilashtirilgan shaklidir. Ego esa id va superego o'rtasida muvozanatni ta'minlab, haqiqat bilan moslashuvni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi dars jarayonida yangi bilimlarni o'zlashtirayotganda, ko'pincha ong ostida mavjud bo'lgan ichki ziddiyatlarga duch keladi. Bu ziddiyatlar bolaning xatti-harakatida intellektual to'siqlar, e'tiborsizlik yoki noto'g'ri javoblar shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Freyd bu holatni himoya mexanizmlarining faollashuvi bilan tushuntiradi. O'qituvchi boladagi bilim o'zlashtirishdagi muammolarni faqat tashqi omillar emas, balki ichki psixik jarayonlar orqali ham izohlashi kerak. Intellektual qiyinchiliklar ko'pincha bolalikdagi travmatik tajribalar yoki psixoseksual rivojlanishdagi bloklanishlar bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, Freyd yondashuvida psixik tahlil va ongsiz jarayonlarni anglash intellekt rivojini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alfred Adlerga ko'ra, bolaning intellektual rivojlanishi uning ijtimoiy ustunlikka erishish intilishiga bevosita bog'liq. Har bir bola o'zini muayyan jihatdan kamroq his qilishi mumkin, bu esa "kamlik kompleksi" deb ataladi. Kamlik kompleksi bolaning o'z ustida ishlashiga, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki bo'lib xizmat qiladi. Intellekt — bu faqat bilimlar yig'indisi emas, balki shaxsning ijtimoiy muhitda o'zini namoyon qilish vositasidir. Bola bilim orqali o'zini tengdoshlaridan ustunroq ko'rsatishga harakat qiladi. Ustunlikka intilish bolaning o'zini qadrlash darajasini oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi. Agar kamlik kompleksi hal qilinmasa, bola o'z imkoniyatlariga ishonmay qoladi va intellektual sustlik yuzaga keladi. Shuning uchun o'qituvchi bolaning psixologik holatini tushunishi va uni ruhlantirishi muhimdir. Adlerga ko'ra, sog'lom ijtimoiy muhit va qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchi boladagi ijtimoiy energiyani to'g'ri yo'naltira oladi.

Karl Yung fikricha, bolaning intellektual rivojlanishi faqat individual tajriba bilan emas, balki kollektiv ongsizlik orqali ham shakllanadi. Kollektiv ongsizlik — bu insoniyat tarixida to'plangan umumiy psixik tajribalar majmuasidir. Ushbu tajribalar arxetiplar shaklida har bir inson ruhiyatida mavjud bo'ladi. Arxetiplar — bu ona, qahramon, donishmand kabi qadimiy, takrorlanuvchi ramziy obrazlardir. Bolaning tushuncha va fikrlash doirasi aynan shu arxetiplar asosida tarkib topadi. Masalan, ertak va afsonalardagi obrazlar bolaning dunyoqarashi va mantiqiy tahlil qobiliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Intellekt bu arxetiplarga asoslangan ramzlar va ma'nolarni ongli ravishda qayta ishlash jarayonidir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat rasmiy bilim emas, balki simvolik va ramziy mazmunlarni ham inobatga olishi kerak. Yungga ko'ra, bolaning intellekti individual emas, balki kollektiv insoniy tajribaning mahsulidir. Shu bois, intellektual rivojlanish chuqur psixik qatlamlar bilan uzviy bog'liq holda kechadi.

Bixevioristik maktab intellektual rivojlanish — bu tashqi muhitga javob sifatida paydo bo'ladigan o'rganilgan xulq-atvorlar yig'indisi deb hisoblaydi. Jon Uotson fikricha, boladagi har qanday aqliy rivojlanish tashqi muhit ta'sirida shakllanadi. Inson ongini o'rganish mumkin emas, faqat kuzatiladigan xulq-atvorni tahlil qilish lozim. Bola bilimni tug'ma qobiliyatlar bilan emas, balki o'rganish orqali egallaydi. Intellekt bu tashqi muhitga moslashgan va mustahkamlangan xatti-harakatlar majmuasidir. Ta'lim jarayonida bolaning aqliy faoliyati mukofot va jazolar orqali boshqarilishi mumkin. To'g'ri javob bergan o'quvchiga mukofot berish, noto'g'ri javob uchun esa neytral munosabat ko'rsatish samarali bo'ladi. Uotson uchun motivatsiya ichki holat emas, balki tashqi rag'batlantirish natijasidir. Aqliy faoliyatga sabab bo'ladigan barcha omillar tashqi muhitdan kelib chiqadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bilimni

bosqichma-bosqich va takroriy tarzda mustahkamlashi kerak. Uotson yondashuvida intellekt o'zgaruvchan va o'rganiladigan xatti-harakatlar yig'indisidir.

B.F. Skinner fikricha, intellekt — bu mustahkamlangan va takrorlangan xatti-harakatlar natijasidir. Bola tug'ma bilimlarga ega emas, u tajriba orqali o'rganadi. Har bir aqliy faoliyat tashqi muhitga javoban paydo bo'lgan operant xatti-harakatdir. Operant shartlanish — bu ma'lum harakat ortidan mukofot kelishini kutish asosida shakllanadigan o'rganishdir. Dars jarayonida bola to'g'ri javob bersa, unga berilgan ijobiy baho yoki maqtov uni yana takrorlashga undaydi. Aksincha, mukofot bo'lmagan harakat asta-sekin yo'qoladi. Intellektual rivojlanish shunchaki ichki tafakkur emas, balki tashqi rag'batga nisbatan shakllangan odatlarning yig'indisidir. Ta'limda har bir bilim kichik bosqichlarga bo'linib, izchil mustahkamlanishi kerak. O'qituvchi bolaning xatti-harakatini doimiy ravishda baholab borishi bilan uning bilim darajasini oshiradi. Skinner yondashuvida intellekt — bu ijobiy mustahkamlovchi orqali boshqariladigan va o'rganilgan xatti-harakatlarning tizimidir.

Gumanistik psixologiya tarafdorlari uchun har bir bola o'z ichki salohiyatiga ega, intellekt bu salohiyatni ochish vositasidir. Abraham Maslow nazariyasiga ko'ra, har bir bolaning intellektual rivojlanishi o'zini namoyon qilish ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq. Intellektual o'sish — bu shaxsiy salohiyatni to'liq ochib berishga intilish jarayonidir. Biroq bola o'zini namoyon qilish darajasiga faqat asosiy psixologik ehtiyojlari qondirilgandagina erisha oladi. Ushbu ehtiyojlar Maslow ierarxiyasida fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlik, ijtimoiy tegishlilik, hurmat va eng so'ngida o'zini namoyon qilish sifatida tartiblangan. Agar bola och, xavotirda yoki o'zini kamsitilgan his qilsa, u holda intellektual faoliyat sust bo'ladi. Sog'lom, qo'llab-quvvatlovchi va xavfsiz muhit bola uchun ta'lim olishga asos yaratadi. O'ziga ishonch, qabul qilinganlik hissi va rag'batlantirish bola intellektini faollashtiradi. Maslow intellektni nafaqat bilim, balki o'z-o'zini anglash va hayotiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida talqin qiladi. O'qituvchi bolaning har tomonlama ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning bilim olishiga ko'mak berishi kerak. Shunday tarzda, intellektual rivojlanish boladagi ichki salohiyatning ochilishiga xizmat qiladi.

Karl Rogersga ko'ra, bolaning intellektual rivojlanishi uning shaxs sifatida qabul qilinishiga bevosita bog'liq. Bola o'zini qadrlangan va tushunilgan deb his qilgan muhitdagina o'z salohiyatini namoyon eta oladi. Intellekt faqat bilim o'rganish emas, balki shaxsiy o'sish jarayonining bir qismidir. Ta'lim jarayonida o'quvchiga shaxsiy fikr bildirishi, savollar berishi va tanlov qilish erkinligi berilishi kerak. Rogers fikricha, rivojlanish tashqi nazorat orqali emas, balki ichki motivatsiya orqali yuz beradi. Bola

o'zining o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojidan kelib chiqib harakat qilgandagina bilim chuqur va barqaror bo'ladi. Erkin va qo'llab-quvvatlovchi muhit bolada ijodkorlik, qiziqish va mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi. O'qituvchi bolaning hissiyotlariga hurmat bilan yondashishi va uning fikrini qadrlashi lozim. Rogers yondashuvida intellekt shaxsiy o'sish bilan birga shakllanadigan holatdir. Natijada, bola o'zini hurmat qiladigan, mustaqil fikrlaydigan va ongli o'quvchiga aylanadi.

Kognitiv psixologiyaning intellekt bo'yicha asosiy g'oyasi: bola bilimni faol tarzda o'zlashtiradi va intellekt — bu bilish jarayonining mahsuli. Jan Piajé fikricha, bolaning intellektual rivojlanishi qat'iy bosqichlarga bo'lingan holda bosqichma-bosqich amalga oshadi. Har bir bosqichda bola atrofdagi dunyoni idrok etish va uni qayta ishlashda o'ziga xos kognitiv sxemalarga ega bo'ladi. Piajé rivojlanishni to'rt bosqichga ajratadi: sensomotor (0–2 yosh), preoperatsional (2–7 yosh), konkret operatsiyalar (7–11 yosh) va formal operatsiyalar (11 yoshdan yuqori). Boshlang'ich sinf o'quvchilari aynan konkret operatsiyalar bosqichida bo'lishadi. Bu davrda bola mantiqiy fikrlashga, sabablilikni tushunishga va ob'ektlar ustida amaliy fikr yuritishga o'rgana boshlaydi. Bolalar bu bosqichda hali abstrakt fikrlashga to'liq o'tmagan bo'lishadi, ammo real holatlar bilan ishlashda ancha muvaffaqiyatli bo'ladilar. Intellektual rivojlanish muhit, tajriba va faol o'zaro ta'sir asosida yuzaga keladi. Piajéga ko'ra, bola bilimni tayyor holatda emas, balki o'z faoliyati orqali quradi.

Dj. Bruner fikricha, intellektual faoliyat uch asosiy bosqichda rivojlanadi: enaktiv, ikonik va simvolik. Enaktiv bosqichda bola atrof-muhitni harakatlar orqali o'rganadi. Bu bosqichda bola narsalarni ushlab ko'rish, sinab ko'rish orqali bilim hosil qiladi. Keyingi bosqich — ikonik bosqich bo'lib, bu yerda bola bilimni vizual tasvirlar va obrazlar orqali tushunadi. Masalan, rasm, shakl, ranglar va predmetlar orqali yangi ma'lumotlarni qabul qiladi. Uchinchi bosqich esa simvolik bosqich bo'lib, bunda bola so'zlar, belgilar va formulalar orqali fikr yuritishni o'rganadi. Bruner ta'lim mazmunini aynan shu bosqichlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Har bir yangi tushuncha dastlab harakat, keyin tasvir, so'ngra til vositasida o'rgatilsa, intellektual o'zlashtirish chuqurroq bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi har bir bosqichni hisobga olib darsni tuzishi kerak. Bruner nazariyasiga ko'ra, intellekt — bu bosqichli o'sish jarayoni bo'lib, harakatdan so'zgacha yetaklaydi.

Lev Semyonovich Vigotskiy fikricha, intellekt ijtimoiy muhitda va boshqa odamlar bilan o'zaro ta'sir orqali shakllanadi. Bola bilimni mustaqil emas, balki kattalar yoki tajribali tengdoshlar yordamida o'zlashtiradi. Bu holat “yaqin rivojlanish zonasi” (YRZ) tushunchasi orqali izohlanadi. YRZ – bu bolaning hozirgi bilim darajasi bilan

boshqalar yordamida erisha oladigan daraja orasidagi farqdir. O'qituvchi yoki katta yoshdagilar ushbu zonada bolaga ko'mak ko'rsatganda, u murakkab bilim va ko'nikmalarni o'zlashtira oladi. Vigotskiy fikricha, nutq va tafakkur bir-biridan ajralmas psixik jarayonlardir. Bola avval tashqi nutq orqali fikr bildiradi, keyin esa bu ichki nutqqa aylanib, fikrlashning asosi bo'ladi. Intellektual rivojlanish bu — tashqi faoliyatning ichki psixik jarayonga aylanishi (internalizatsiya)dir. Ijtimoiy muloqot, o'yin, darsdagi suhbatlar va ko'rsatmalar bola tafakkurining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun Vigotskiy ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy kontekstda olib borishni muhim deb hisoblaydi.

Ijtimoiy-kognitiv nazariya intellektni ijtimoiy o'rganish va kuzatish orqali rivojlanishini ta'kidlaydi. Albert Bandura nazariyasiga ko'ra, bola bilim va xulq-atvorni bevosita tajriba orqali emas, balki boshqalarni kuzatish orqali ham o'rganadi. U atrofidagi o'qituvchilar, ota-onalar va tengdoshlarning harakatlarini modellashtirib, o'ziga singdiradi. Intellektual rivojlanish ijtimoiy muhitdagi faol kuzatuv va taqlid asosida shakllanadi. Bola faqat harakatni emas, balki uning oqibatini ham o'rganadi — bunga vikariy o'rganish deyiladi. Bandura fikricha, intellekt o'zini baholash, o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari orqali rivojlanadi. Bola o'zining muvaffaqiyati va xatolariga tayanib, ichki nazorat tizimini shakllantiradi. Ijobiy ijtimoiy ta'sir bolada ishonch va bilimga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Intellekt faqat mantiqiy fikrlash emas, balki ijtimoiy kontekstdagi o'zaro ta'sir mahsulidir. O'qituvchi o'zini bilimli, hurmatli va ijobiy model sifatida ko'rsatishi bolaning bilimga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Shu sababli, Bandura yondashuvida intellekt — bu ijtimoiy ta'sir va ichki o'zini boshqarishning integratsiyalashgan natijasidir.

Madaniy-tarixiy maktab namoyondalari L.S. Vigotskiy va A.N. Leontyev intellektni ijtimoiy va madaniy tajribaning natijasidir deb hisoblashgan. Lev Vigotskiy fikricha, bola bilimni faoliyat orqali egallaydi, ya'ni bilimlar har doim tashqi harakatlar bilan boshlanadi. Bu tashqi harakatlar asta-sekin ichki fikrlash jarayonlariga aylanadi. Ushbu jarayon eksternalizatsiyadan internalizatsiyaga o'tish deb ataladi. Dastlab bola bilimni ko'rsatmalar, muloqot yoki jismoniy faoliyat orqali o'zlashtiradi. Masalan, u hisoblashni barmoqlari bilan bajaradi, so'ngra bu aqliy jarayonga aylanadi. Bu ichki o'zlashtirish natijasida bola mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Vigotskiy ushbu jarayonning asosida ijtimoiy muloqot turishini ta'kidlaydi. Boshqalar bilan bo'lgan o'zaro aloqalar orqali bilimlar ichki tafakkurga singadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifasi — tashqi faoliyatni shunday tashkil etishki, u ichki

fikrlashga olib kelsin. Shunday qilib, intellektual rivojlanish tashqi harakatlar asosida boshlangan, ammo ichki aqliy tizimga aylangan jarayon sifatida qaraladi.

Aleksey Leontyev fikricha, intellekt faoliyat orqali shakllanadi va faqat amaliy harakatlar jarayonida rivojlanadi. Bola bilimni abstrakt shaklda emas, balki real faoliyatga tatbiq etganida chinakam o'zlashtira oladi. Har bir bilim va ko'nikma faqat faoliyatda qo'llanilgandagina haqiqiy intellektual boylikka aylanadi. Shuning uchun ta'limda faollik asosiy o'rin tutadi. O'quvchining mustaqil, maqsadga yo'naltirilgan faoliyati uning tafakkurini rivojlantiradi. Maqsadli faoliyat bolaning diqqatini jamlaydi, motivatsiyasini kuchaytiradi va bilimni mustahkamlaydi. Leontyev faoliyatni uch tarkibiy qismga ajratadi: motiv, maqsad va amaliy harakatlar. Intellekt aynan mana shu komponentlar o'rtasidagi uyg'unlik asosida tarkib topadi. O'qituvchi bolaning ichki motivlarini hisobga olgan holda uni faoliyatga jalb qilishi lozim. Natijada, bola faolligi ortadi, bilim esa befarqlik bilan emas, ongli va faol yondashuv asosida egallanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektini shakllantirishda psixologik maktablar yondashuvlari o'rtasidagi farqlarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

1-Jadval**Psixologik maktablar taqqoslov jadvali**

Psixologik maktab	Asosiy vakillar	Intellekt tushunchasi	Intellekt shakllanish omillari	O'quvchig a yondashuv	O'qituvchinin g roli
Psixoanali tik	Z. Freyd, A. Adler, K. Yung	Ongosti, ichki ziddiyatlar orqali namoyon bo'ladi	Bolalikdagi ruhiy tajribalar, ichki konfliktlar	Ruhiy muammolarni tushunish orqali	Ruhiy ziddiyatlarni aniqlovchi va tahlil qiluvchi
Bixevioristik	J. Uotson, B. Skinner	O'rganilgan xulq-atvorlar yig'indisi	Rag'bat, jazolash, shartli reflekslar	Rag'bat orqali xulqni shakllantirish	Stimullarni boshqaruvchi, mukofotlovchi
Gumanistik	A. Maslow, K. Rogers	O'zini namoyon qilish imkoniyati	Ichki ehtiyojlar, erkinlik, shaxsiy o'sish	Shaxs sifatida hurmat bilan yondashadi	Qo'llab-quvvatlovchi, motivatsiyalovchi

Kognitiv	J. Piajé, Dj. Bruner	Bilish jarayonlarini ng rivoji	Fikr yuritish, tafakkur bosqichlari, kognitiv sxemalar	Aqliy rivoj bosqichlari ga mos yondashuv	Bilimni strukturaviy tashkil etuvchi
Ijtimoiy- kognitiv	A. Bandura	Ijtimoiy muhit orqali o'rganilgan aqliy xatti- harakatlar	Kuzatuv, modellash sh, o'zini nazorat qilish	Ijtimoiy o'rganish orqali shakllanish	Model bo'lish, ijobiy ijtimoiy muhit yaratish
Madaniy- tarixiy	L.S. Vigotski y, A.N. Leontye v	Madaniy vositalar orqali ichkilashtiril gan faoliyat	Nutq, o'qituvchi yordamida o'rganish (ZPD), faoliyatga singdirish	Ijtimoiy faoliyat ishtirokchis i sifatida	Ko'makchi, rivojlantiruvch i faoliyat tashkilotchisi

XULOSA

Turli psixologik maktablar boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishiga o'ziga xos yondashuvga ega. Psixoanalitiklar intellekt shakllanishida ichki psixik muammolar va dinamik kuchlarning ahamiyatini ta'kidlashadi. Z. Freyd fikricha, psixika id, ego va superego o'rtasidagi muvozanat asosida faoliyat yuritadi. Id tug'ma instinktlar va ehtiyojlarni ifodalaydi. Superego esa jamiyat va ota-ona tomonidan berilgan qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Ego esa ushbu ikkisini muvofiqlashtiruvchi mexanizmdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisining darsdagi intellektual qiyinchiliklari ko'pincha ichki ruhiy ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Adler esa intellektni ijtimoiy ustunlikka erishish intilishi bilan izohlaydi. Bola kamlik kompleksini yengishga harakat qilib, bilim olishga kuchli rag'bat topadi. K. Yung intellekt rivojida arxetiplar va kollektiv ongsizlikning rolini alohida ko'rsatadi. Bu arxetiplar bolaning tushunchalari va mantiqiy fikrlashini shakllantiradi.

Bixavioristlar esa intellektni tashqi muhit ta'siri ostida shakllanadigan o'rganilgan xulq-atvorlar majmuasi sifatida tushuntiradilar. J. Uotson bola bilimni faqat tajriba orqali o'zlashtiradi, deb hisoblagan. Mukofot va jazolash o'quvchining bilim olishga bo'lgan munosabatini boshqaradi. To'g'ri javob bergan o'quvchiga berilgan mukofot uni qayta harakat qilishga undaydi. B.F. Skinner intellektni operant shartlanish natijasi deb biladi. Operant shartlanishda ijobiy rag'bat bilimni mustahkamlaydi. Mukofot

bo‘lmagan xatti-harakat esa asta-sekin yo‘qoladi. Bixevioristlar nazarida intellekt to‘g‘ri boshqarilgan rag‘batlantirish orqali shakllanadi.

Kognitiv yondashuv vakillari intellektni bilish jarayonlari va tafakkur bosqichlari orqali izohlaydilar. J. Piajé intellektual rivojlanishni bosqichma-bosqich kechadigan jarayon deb biladi. Boshlang‘ich sinf davri konkret operatsiyalar bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilar mantiqiy fikrlashga va sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunishga qodir bo‘ladilar. Dj. Bruner intellektni enaktiv, ikonik va simvolik bosqichlarda rivojlanishini ta’kidlaydi. Ta’lim jarayoni shu bosqichlarga moslashtirilganda bilim samarali o‘zlashtiriladi. Kognitivchilar uchun bola bilimning faol yaratuvchisidir.

Gumanistik psixologlar esa intellektni bolaning ichki salohiyatini ochish vositasi sifatida ko‘radilar. A. Maslow fikricha, intellektual o‘shish o‘zini namoyon qilish darajasiga chiqishdir. Bola asosiy psixologik ehtiyojlari qondirilgandagina intellektual rivojlanishga erishadi. K. Rogers o‘quvchining qabul qilinishi va shaxsiy erkinligi intellektual o‘shishning asosiy sharti ekanini ta’kidlaydi. Erkin va qo‘llab-quvvatlovchi muhit bolada ijodkorlik va motivatsiyani kuchaytiradi.

Ijtimoiy-kognitiv yondashuv vakillari intellekt shakllanishini modellashtirish va ijtimoiy o‘rganish orqali izohlaydilar. Albert Bandura bu jarayonni vikariy o‘rganish deb ataydi. Bola o‘z atrofidagi bilimli shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladi. O‘quvchi o‘zini baholash, o‘z-o‘zini boshqarish va ijtimoiy ta’sir orqali intellektini rivojlantiradi. Ijobiy modelga ega bo‘lgan bola bilimga ko‘proq intiladi. Ijtimoiy muhit intellektual rivojlanishning ajralmas omili bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 392 bet.
2. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. - Worth Publishers. 2010. - 13.
3. Philip J. Corr, Gerald Matthews. Personality Psychology. Cambridge University Press 2009.-906 R.
4. Psychology as the Behaviorist Views it John B. Watson (1913) First published in Psychological Review, 20, 158-177.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. T; Fan va texnologiyalar, 2010. - 250 b
6. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya T; “Universitet” nashriyoti, 2012. 190b.